

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSIYALAR VA MOLIYAVIY  
RIVOJLANISHNI OLIY MUHANDISLIK MAKTABLARI BILAN  
INTEGRATSIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI”

## TEZISLAR TO‘PLAMI

2024-yil 1-avgust–27-sentabr



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 33 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 30-iyulda ruxsat etildi.*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUprofessori  
**Nosir Mahmudov**, i.f.n. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musayeva Shoirazimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Cham Tat Huei**, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Krissi Luis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Ali Konak (Али Кўнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Nasir Mahmudov**, I.f.n. Professor of Tashkent State University of Economics

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCEGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

Zamonaviy agrotexnologiyalar hosildorlik garovi .....	15
<b>K.A.Sharipov, V.A.Karimov</b>	
Oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil etish. toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va xorijiy davlatlar tajribasi.....	19
<b>S. M. Mirzaliyev</b>	
Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadlilikini oshirish masalalari.....	24
<b>Adilov Mirkomil Miralimovich</b>	
Yoshlar turizmi bilan bog'liq tushunchalarni o'rganishning nazariy jihatlari.....	27
<b>Allayor Norboev Ismoilovich</b>	
The importance of risk management to ensuring the stability of commercial banks .....	30
<b>Abdusalomov Jahangir Oktam ugli</b>	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobining asoslari.....	33
<b>Abduraxmanov Otabek Patidinovich</b>	
Inson kapitalini boshqarishda inteluktual salohiyatni iqtisodiy bilimlar bilan mustahkamlash dolzarbligi .....	36
<b>Kurbanbayeva Sevara Marat qizi</b>	
Reducing corruption through tax mechanisms .....	39
<b>Musayeva K.Y</b>	

## OLIY TA'LIM TIZIMIDA IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISH: TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI



**S. M. Mirzaliyev**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

**Annotatsiya:** Inson kapitalining ahamiyati oshayotgan globallashtirish davrida iqtidorli yosh kadrlarni tayyorlash davlat uchun asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki aynan iqtidorli yoshlar kelgusi o'n yilliklar uchun mamlakat iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniyatini belgilab beruvchi qatlam hisoblanadi. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash, ayniqsa, OTM faoliyatida muhim o'rin tutib, iqtisodiyot tarmoqlariga bevosita kadr chiqarish vazifasi bilan bog'liqdir. Ushbu maqolada Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida iqtidorli yoshlar bilan ishlash faoliyati va erishilgan natijalar tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, maqolada xorij tajribasi, iqtidorli yoshlar bilan ishlash muammolari va ularga yechimlar aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Qobiliyat, iqtidorli talaba, inson kapitali, iqtisodiyot, TDIU, muammo, ta'lim, ilmiy faoliyat.

**Abstract:** In the era of globalization, when the importance of human capital increases, training talented and young personnel is the main task of the state. Because it is talented young people who determine the economy, social life and culture of the country for the coming decades. Work with talented youth plays an important role in the activities of higher educational institutions and is directly related to the task of staffing sectors of the economy. This article analyzes activities to work with talented youth and the results achieved at the Tashkent State University of Economics. The article also reflects foreign experience, problems of working with talented youth and ways to solve them.

**Key words:** Ability, gifted student, human capital, economics, TSUE, problem, education, scientific activity.

**Аннотация:** В эпоху глобализации, когда возрастает значение человеческого капитала, подготовка талантливых и молодых кадров является основной задачей государства. Потому что именно талантливая молодежь определяет экономику, общественную жизнь и культуру страны на ближайшие десятилетия. Работа с талантливой молодежью играет важную роль в деятельности высших учебных заведений и напрямую связана с задачей кадрового обеспечения отраслей экономики. В данной статье анализируется деятельность по работе с талантливой молодежью и результаты, достигнутые в Ташкентском государственном экономическом университете. Также в статье отражен зарубежный опыт, проблемы работы с талантливой молодежью и пути их решения.

**Ключевые слова:** Способности, талантливый студент, человеческий капитал, экономика, ТГЭУ, проблема, образование, научная деятельность.

### KIRISH

Oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlashda, avvalo muassasa joylashgan davlatda qabul qilingan qonun va islohotlar tahlil etilishi lozim.

Insonda qobiliyatning rivojlanishi, uning talantga aylanishi dastlabki tahlilini amalga oshirish uchun psixologiya asarlaridan foydalanildi.

Bu borada F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova qalamiga mansub "Umumiy psixologiya" darsligidan iqtidor, uning kelib chiqishi, uni shakllanish va qobiliyat, uning rivojlanish bosqichlari hamda kelib chiqish nazariyalari o'rganildi. Shuningdek, yana bir mahalliy olim B. N. Sirliyevning quyidagi fikri tahlil qilindi [1]: "Qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatdir".

"Milliy iqtisodiyotimizda investitsiyalar va moliyaviy rivojlanishni oliy muhandislik maktablari bilan integratsiyalashtirish samaradorligi"

Xorijlik olimlardan rus olimi A.I.Savenkovning “Qobiliyatlar xaritasi” metodikasiga ko‘ra o‘smirlardagi iqtidor omillari tahlil etib chiqildi. Shuningdek, Muhammad Olimatning iqtidorli talabalar bilan ishlashning asosiy maqsadi va ushbu jarayonda duch kelinuvchi to‘siqlar haqidagi maqolasi o‘rganildi [2].


Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o‘zi bu bilim va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Malaka, ko‘nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo‘ladi.

Oliy ta‘lim muassasalarida talantga ega talabalarni topish asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Iqtidorga ega, deb hisoblanuvchi talaba xususiyatlarini belgilash va ularni topish.
2. Talabalarning iqtidor turidan kelib chiqqan holda maxsus o‘quv dastur va ishlar rejasini tuzib chiqish.
3. Tayyorlangan usullarni amaliyotga joriy etish.

A.I.Savenkovning “Qobiliyatlar kartasi” metodikasiga ko‘ra o‘smirlardagi iqtidor quyidagi omillarda aniqlanadi [3]:

- qiziqish;
- muammolarning oqibatlari bilan emas, sabablari bilan kurasha olish;
- natijani prognoz qila olish;
- so‘z boyligining hajmi;
- vaziyatni to‘g‘ri va tez baholay olish;
- innovatorlik;
- mantiqan fikrlash va xulosa chiqarish;
- qaysarlik, o‘z fikrida qolish;
- doimo mukammallikka intilish(1-rasm).



1-rasm. Qobiliyatlarning rivojlanishi va unga ta‘sir etuvchi omillar [4].

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 58 ta ilmiy to‘garak hozirgi kunda faoliyat yuritadi. 2024-yilda ilmiy to‘garaklar sonini 64 taga yetkazish rejalashtirilgan. Universitetda har yili talabalar ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etiladi. Joriy yilda iqtidorli talabalar 556 ta ilmiy maqola va tezislari bilan ishtirok etdi. 2024-yilda 1000 ga yaqin iqtidorli talabalar ishtiroki rejalashtirilmoqda.

## XORIJ TAJRIBASI

Hozirgi innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar keng tarqalgan davrda firmalarning asosiy aktivi bu unda ishlovchi insonlar hisoblanadi. Inson kapitali asosan quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi [5]:

- Bilim va qobiliyat;

- Qo‘shimcha yaratilgan qiymat;
- Kompaniyalar o‘rtasidagi raqobatda o‘rni;
- Mijozning tashkilotdan oluvchi nafillik darajasi.

Inson kapitali startaplar, venchur firmalar va katta kompaniyalarning investitsion faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ularning foyda keltiruvchi asosiy kapitaliga aylangan. Bunday firmalarda inson kapitalining qiymati uning firma haqidagi bilim darajasiga, kompaniyaning tijoriy sirlari va innovatsiyalarni tashkil etishdagi o‘rni orqali belgilanadi [6]. Shu sababli, bunday xodim ishdan ketganida firma birdaniga bir necha bo‘limlarda samaradorlikning pasayishiga duch keladi. Masalan, Massachusettsda joylashgan Idenix Pharma keysini ko‘rish mumkin. Ushbu kompaniya Gepatit C va OITVni davolovchi dori vositalari ishlab chiqarardi. 2010-yil 28-oktyabrda Idenix kompaniyasi bosh ijrochi direktori Jean-Pierre Sommadossi “biotexnologiya sohasidagi boshqa tadqiqotlarni amalga oshirish” sababi bilan ishdan ketadi. Sommadossi bir vaqtning o‘zida ham CEO, ham Idenix kengash raisi, farmatsiya fanlari bo‘yicha fan doktori, shuningdek, Gepatit C va OITV sohasida 50 dan ortiq patent sohibi edi. Oqibatda, kompaniyaning kutilayotgan daromad ko‘rsatkichi (CAR) dastlabki 5 kunda 10 foizga, 1 oyda esa 20 foizga pasaydi. AQShning qimmatli qog‘ozlar va birja masalalari bo‘yicha komissiya (SEC) hujjatlarida Sommadossi “key man” sifatida qayd etilgan va uning o‘limi sug‘urtalangan edi. Lekin, ehtimoli ko‘proq holat – uning ixtiyoriy ketishini kompaniya sug‘urtalamagan edi [7].

Hozirda Xitoy davlatida Oliy ta‘limga investitsiyalar, STEM ta‘lim tizimi va yuqori raqobat muhiti davlatda inson kapitali ahamiyatini oshiradi. 2012–2021-yillarda Xitoy hukumati tomonidan oliy ta‘limga sarflanuvchi xarajatlar miqdori 24 mlrd. dollardan 47 mlrd. dollargacha oshirildi. TOP-500 ga kirgan Xitoy universitetlari soni 3 barobardan ortiqqa o‘tdi. Kelgusidagi rejalarga ko‘ra, Xitoyda 2025-yilda 77 ming STEM PhD mutaxassislarini tayyorlash rejalashtirilgan. AQShda esa bu vaqtga kelib faqatgina 40 mingta mutaxassis tayyorlanishi mumkin. Bundan tashqari, 1 milliondan ortiq xitoylik talabalarning mamlakatga qaytib kelish ko‘rsatkichi taxminan 80 foizni tashkil etadi. Lekin, shahar va qishloq orasidagi daromadlar tengsizligi, universitetlarga kirish imtihonining (Gaokao) haddan tashqari qiyinligi mamlakatda inson kapitali ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda [8].

Bir qancha olimlarning fikricha, barqaror rivojlanish va ekologik samaradorlikka erishishda inson salohiyatining o‘rni kattadir va u quyidagi xususiyatlarga ega:

- Korxonalaridagi o‘z sohasining yetakchi mutaxassislari energiya samaradorligi hisobiga elektr tokining sarflanish miqdorini cheklashlari mumkin [9];
- Inson kapitali innovatsiyalar va ixtirolar orqali hudud ekologiyasini asray oladi [10];
- Yuqori darajada qo‘shilgan qiymat yaratish orqali kompaniya foydasini keskin oshiradi hamda korxonadan chiqariluvchi zaharli gaz va chiqindilar miqdorini o‘zgartirmaslikka erishadi [11];

Ushbu fikrlar empirik tasdiqlangan bo‘lib, P.K. Adomning 1971–2011-yillar oralig‘idagi Nigeriya ma‘lumotlari asosida olib borilgan tadqiqotda o‘z isbotini topgan [12]. Bu o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun kerak bo‘luvchi kapital darajasi – Human capital index (HCI) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$HCI = \frac{(H * E * S * W)}{100}$$

Bu yerda, H – sog‘liqlik darajasi indeksi, E – ta‘lim darajasi indeksi, S –qobiliyatlar indeksi, W – ish tajribasi indeksi. Har bir indeks 0–100 oralig‘ida baholanadi.

A. A. Alfalih va T. B. Hadj tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, G20 davlatlarida aynan inson kapitali va yashil innovatsiyalar ekologik holatni “qaytarib bo‘lmas darajada yomonlashish”dan saqlamoqda. Ammo, inson kapitalining ulushi boshlang‘ich nuqtagina hisoblanib, mavjud potentsialdan to‘liq foydalanish uchun HCI ko‘rsatkichi yanada oshirish kerak [13].

Inson kapitali darajasini oshirishda kompaniyalar va universitetlarning o‘zaro strategik hamkorligi ulardagi innovatsion samaradorlikni belgilab beradi. Ekaterina Albats, Marcel Bogers va Daria Podmetinaning 2020-yildagi maqolasiga ko‘ra, ushbu hamkorlik universitetlarga amaliy tadqiqotlar oshirishda, kompaniyalarga esa yetuk kadrlarni yetkazib berishda strategik ahamiyatga egadir [14].

Universitetlardagi ilmiy faoliyatda inson kapitalining darajasini oshirish hamda iqtidorli talabalarni aniqlash haqida turli xil usullar mavjud. Rossiyalik olimlar o‘tkazgan empirik tahlillarga ko‘ra talabalar 3 guruhga bo‘linadi [15]:

- 1-guruhdagi iqtidorli talabalar kuchli ichki motivatsiya va turli sohalaridagi qiziqishlarga egadirlar. Ular o‘rganilayotgan fanni to‘liq o‘zlashtirish va ilmiy ish qilishga qiziqadilar.
- 2-guruhdagi talabalar esa mutaxassisliklaridagi tor sohadagina kuchli motivatsiya va o‘rganishga faollik ko‘rsatishadi. Agar o‘rganiluvchi fan talabalarning qiziqish doiralari to‘g‘ri kelmasa, ular yuqori intellekt sababli a‘lo baho olishlari mumkin, ammo ushbu fandan olingan ma‘lumotlar yuzaki hisoblanadi va xotirada uzoq saqlanmaydi.
- 3-guruhdagi talabalar esa ijod yoki sport sohasida yutuqlarga erishgan bo‘lishadi. Bunday talabalarning faqat bir qismigina o‘z mutaxassisligini yaxshi o‘zlashtirishi mumkin.

Rus olimlari 2 va 3-guruhdagi talabalar bilan ishlashda quyidagi metodlarni taklif etishadi:

- Bo'lg'usi kasb bilan bog'liq bo'lgan va uning barcha xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi keyslar bilan ishlash;
- Hozirda ushbu mutaxassislikdagi yuzaga kelgan chet el va milliy darajadagi ilmiy muammolarni o'rganish;
- Dars mavzusidan kelib chiqqan holda o'yin tuzish.

Qozoq milliy pedagogika universiteti olimlari fikricha, iqtidorli talabalarni topish va ularni yo'naltirish makro darajadan boshlanishi lozim [16]:

- Iqtidor xususiyatidan kelib chiqqan holda, barcha ta'lim yo'nalishlaridagi talabalar uchun mutaxassislik fanlardan olimpiadalarni tashkil etish va ushbu olimpiadalarning uzluksizligini ta'minlash;
- Universitet, fakultet va kafedralarda mutaxassisliklardan kelib chiqqan holda "Yosh olim" va "Tadqiqotchi-talaba" jurnallarini chop etish;
- Universitet va mintaqaviy darajada iqtidorli talabalarining ma'lumot bazasini shakllantirish va ularning kelgusidagi rivojlanish rejalarini tuzish;
- Iqtidorli talabalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash uchun haftalik "Yakshanba maktabi", shuningdek yozgi va qishki maktablarni tashkil etish.

Agar Qozog'istondagi makro darajadagi islohotlar va rus olimlarining individual ishlash tamoyillarini bir-lashtirsak, iqtidorli talabalarni topish va ularni ilmiy yo'naltirishda mustahkam tizim hosil bo'ladi.

Lekin, xorij tajribasida ham iqtidorli talabalarni topish, ular bilan ishlash metodlarini tuzish va ushbu metodlarni qo'llashda muammoliklar mavjud. Masalan, Duke universiteti o'qituvchisi Steven I. Pfeifferning soha ekspertlari orasida o'tkazgan so'rovnomasiga ko'ra, 94% ekspertlar "Talabalarni iqtidorli, deb belgilash va iqtidorini o'lchashda aniq va yagona yechimga kelinmagan", deya hisoblashadi. Iqtidorli talabalar bilan ishlash metodologiyasini tuzishda esa 84% ekspertlar o'quv dasturida bilimlarning chuqur taqdim etilmaganligi va talabalarni aniq maqsad bo'yicha yo'naltirmaganligini ta'kidlashgan. Usullarni amaliyotga tatbiq etish masalasida esa, 63% ekspertlar ta'lim muassasalarida mentorlik bo'yicha aniq qoidalar yo'qligi aytishgan [17].

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarining nufuzi, undagi o'quv sifati va mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni aynan undagi iqtidorli talabalari orqali aniqlanadi. TDIU da shu sohada amalga oshirilgan o'zgarishlar muvaffaqiyatli hisoblanib, undagi O'zbekistondagi yuqori nufuzini ta'minlaydi. Lekin, universitetda iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini yanada yaxshilash mumkin va bu uchun quyidagi takliflar beriladi:

1. O'quv davrining kamida 50 foiz qismida (bakalavrda 2 yil, magistraturada 1 yil) a'lo baholarga ega bo'lgan va mutaxassislik fanlarini yaxshi o'zlashtirgan talabalarining keyingi o'quv davridagi to'lov-kontrakt summasini universitet hisobidan qoplash.

2. Semestrlar davomida uzluksiz tarzda OAK, Scopus, Web of Science va Springer ma'lumotlar bazalariga kiruvchi jurnallarida maqola chop etgan talabalarni moddiy rag'batlantirish.

3. Mutaxassislik fanlarini a'lo o'zlashtirgan va Vikipediya qoidalariga mos ravishda maqola yarata oluvchi talabalarni "WikiOromgoh" dasturida qatnashishlari uchun noutbuklar va boshqa kerakli texnika qurilmalari bilan ta'minlash.

4. Vikipediya ensiklopedik ahamiyatga ega iqtisodiy maqolani yaratib (yoki mavjud iqtisodiy maqolani) uni "Tanlangan maqola", "Yaxshi maqola" yoki "Xushsifat maqola" darajasiga olib chiqqan talabalarni moddiy rag'batlantirish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. B. N. Sirliyev, A. A. Beknazarov, D. N. Arziqulov. Psixologiya (ma'ruzalar to'plami). O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi. T.: 2005.
2. Olimat, Mohammad. Gifted Students. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*. 5, 2010. – pp. 1112–1114.
3. Rudenko, I., Bystrova, N., Smirnova, Z., Vaganova, O., Kutepov, M. Modern technologies in working with gifted students. *Propósitos y Representaciones*, 9 (SPE1), 2021. – pp. 5–6.
4. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya. Darslik. T.: 2009. 322–324 b.
5. Mohammad Pasban, Sadegheh Hosseinzadeh Nojehdeh. A Review of the Role of Human Capital in the Organization. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, vol. 230, 2016. – pp. 249–253.
6. Gu, Lifeng, Ruidi Huang, Yifei Mao, and Xuan Tian. "How Does Human Capital Matter? Evidence from Venture Capital." *Journal of Financial and Quantitative Analysis* 57, no. 6, 2022. – pp. 2063–2064.
7. Israelsen, Ryan D., and Scott E. Yonker. "Key Human Capital." *Journal of Financial and Quantitative Analysis* 52, no. 1, 2017. – pp. 175–214.
8. Boland, Briana, Kevin Dong, Jude Blanchette, and Ryan Hass. "How China's Human Capital Impacts Its National Competitiveness." *Center for Strategic and International Studies (CSIS)*, 2022. pp. 4–10.
9. Bano, S., Zhao, Y., Ahmad, A., Wang, S., Liu, Y., 2018. Identifying the impacts of human capital on carbon emissions in Pakistan. *J. Clean. Prod.* 183, 1082–1092.

10. Zafar, M.W., Zaidi, S.A.H., Khan, N.R., Mirza, F.M., Hou, F., Kirmani, S.A.A., 2019. The impact of natural resources, human capital, and foreign direct investment on the ecological footprint: the case of the United States. *Res. Policy* 63, 101428.
11. Huang, C., Zhang, X., Liu, K., 2021. Effects of human capital structural evolution on carbon emissions intensity in China: A dual perspective of spatial heterogeneity and nonlinear linkages. *Renew. Sust. Energ. Rev.* 135, 110258.
12. Adom, P.K. Asymmetric impacts of the determinants of energy intensity in Nigeria. *Energy Econ.* 49, 2015. – pp. 570–580.
13. Abdulaziz Abdulmohsen Alfalih, Tarek Bel Hadj. Ecological impact assessment of green technological innovation under different thresholds of human capital in G20 countries. *Technological Forecasting and Social Change*, vol. 201, 2024. – pp. 12–14.
14. Ekaterina Albats, Marcel Bogers, Daria Podmetina, Companies' human capital for university partnerships: A micro-foundational perspective. *Technological Forecasting and Social Change*, vol. 157, 2020. – pp. 10–13.
15. Артюхина А.И., Иванова Н.В., Чумаков В.И. педагогическая работа с одарёнными студентами на практическом занятии, 2022. URL:[https://www.volgmed.ru/uploads/files/2022-8/160770-pedagogicheskaya\\_rabota\\_s\\_odaryonimi\\_studentami\\_na\\_prakticheskom\\_zanyatii.pdf](https://www.volgmed.ru/uploads/files/2022-8/160770-pedagogicheskaya_rabota_s_odaryonimi_studentami_na_prakticheskom_zanyatii.pdf)
16. Lora Narikbayeva, Ardak Kalimoldayeva, Kamarsulu Ibrayeva, Zhanil Madalieva, Akkenzhe Ussenova. Development and Implementation of the Project “A Gifted Student”. *Espacios*, Vol. 39, no. 10, 2018. – pp. 37–43.
17. Pfeiffer, Steven. Identifying Gifted and Talented Students. *Journal of Applied School Psychology* 19, 2002. – pp. 34–37.
18. Internet saytlari
19. Lex.uz
20. Tsue.uz

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2024-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

